


## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1 trln. 424,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 88,4 % ni tashkil etdi.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 50,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 6,8 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoat - 6,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 2,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chi-qarilgan mahsulotlar hajmi 64,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 % ini tashkil etdi.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh qazib olish - 2,0 martaga, tabiiy qum - 1,6 martaga, ko'mir - 21,4 % ga oshdi, xom neft (97,7 %), yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar (35,7 %) pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	50,6	61,5	10,9
Neft, ming t.	26,6	26,0	-0,6
Yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.	2,8	1,0	-1,8
Qum, ming t.	11,8	19,6	-7,8
Chaqiq tosh, ming t.	22,3	44,2	-21,9




### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 259,1 mld. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,4 % ini tashkil etdi.



### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi - 0,2 % ni (2019-yil yanvar-aprel oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 19,5 % (23,9 %) va quyi texnologiyalisi - 68,4 % (63,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 48,6 % ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 26,5 % ni, mashina va uskunalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 2,0 % ni, yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 1,9 % ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda boshqa o'simlikdan yog' olishda hosil bo'lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar - 42,6 martaga, paxta tolasi - 18,4 % ga, qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 2,4 martaga, erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar - 2,1 martaga, quyish uchun tayyor beton - 2,1 martaga, bir qavatli ip - 21,6 % ga, un - 35,9 % ga, neft bitumi - 2,5 % ga oshdi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan  
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	0,6	10,4	9,8

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-aprel</b>	<b>2020-yil yanvar-aprel</b>	<b>Farqi +/-</b>
<b>Tozalangan paxta yog'i, ming t.</b>	3,7	3,0	-0,7
<b>Un, ming t.</b>	37,7	51,2	13,5
<b>Portlandsement, ming t.</b>	0,0	54,0	54,0
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>	3,6	1,6	-2,0
<b>Qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar, ming t.</b>	1,8	4,5	2,7
<b>Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar, ming dona</b>	17,0	37,0	20,0




### **Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati**



2020-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,4 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1835,2 %), 7,3 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (122,9 %), 51,2 ming tonna un (135,9 %), 54,0 ming tonna portlandsement (0,0%), 69,0 ming dona kiyim-kechaklar (121,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar - 27,3 % ga oshganligi, gazsimon yoqilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar (81,4 %), boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi) (71,2 %) pasayganligi kuzatildi.


## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1,0	0,0	-1,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	26,8	19,1	-7,7



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	0,8	1,1	0,3
Suvga ishlov berish va SUV quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	8,2	7,6	-0,6
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'otish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,8	3,5	1,7
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	3,4	5,4	-2,0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,9 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 1,6

martaga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 28,6 % ga oshganligi, suvgaga ishlov berish va suv guvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar (92,7 %) kamayganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 533,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan - 2,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-aprel oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 47,5 % dan 41,5 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,8 % (2019-yil yanvar-aprel oylarida 3,7 %) ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 21,7 % ni, shuningdek, Sho'rchi tumani 17,6 % ni, Denov tumani 16,0 % ni, Jarqo'rg'on tumani 7,2 % ni, Sherobod tumani 5,8 % ni hamda Termiz tumani 5,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz shahri (113,3 %), Qumqo'rg'on (152,5 %), Sho'rchi (112,1 %), Oltinsoy (109,8 %), Termiz (103,9 %), Qiziriq (103,4 %) hamda Bandixon (103,0 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>533,2</b>	<b>100,0</b>	<b>102,1</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>115,7</b>	<b>21,7</b>	<b>113,3</b>
tumanlar:			
<b>Angor</b>	<b>15,7</b>	<b>2,9</b>	<b>98,9</b>
<b>Bandixon</b>	<b>0,6</b>	<b>0,1</b>	<b>103,0</b>
<b>Boysun</b>	<b>15,0</b>	<b>2,8</b>	<b>101,3</b>
<b>Denov</b>	<b>85,3</b>	<b>16,0</b>	<b>79,0</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>38,2</b>	<b>7,2</b>	<b>96,3</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>25,4</b>	<b>4,8</b>	<b>152,5</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>11,5</b>	<b>2,2</b>	<b>103,4</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>9,5</b>	<b>1,8</b>	<b>101,8</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>21,9</b>	<b>4,1</b>	<b>109,8</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>22,4</b>	<b>4,2</b>	<b>99,4</b>
<b>Termiz</b>	<b>30,4</b>	<b>5,7</b>	<b>103,9</b>
<b>Uzun</b>	<b>16,7</b>	<b>3,1</b>	<b>101,2</b>
<b>Sherobod</b>	<b>30,9</b>	<b>5,8</b>	<b>97,3</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>93,8</b>	<b>17,6</b>	<b>112,1</b>



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 338,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyl ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.




**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020-yil yanvar-aprel mldr. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1424,6</b>	<b>106,5</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>272,1</b>	<b>105,4</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>29,1</b>	<b>98,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>0,6</b>	<b>90,8</b>
<b>Boysun</b>	<b>21,2</b>	<b>96,6</b>
<b>Denov</b>	<b>144,1</b>	<b>107,4</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>262,7</b>	<b>93,0</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>136,7</b>	<b>164,7</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>49,8</b>	<b>130,7</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>49,5</b>	<b>185,4</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>22,8</b>	<b>96,8</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>130,9</b>	<b>105,6</b>
<b>Termiz</b>	<b>33,8</b>	<b>90,1</b>
<b>Uzun</b>	<b>28,7</b>	<b>89,9</b>
<b>Sherobod</b>	<b>122,9</b>	<b>111,9</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>120,0</b>	<b>108,2</b>



## Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,1 %), Jarqo'rg'on (18,4 %), Denov (10,1 %), Qumqo'rg'on (9,6 %), Sariosiyo (9,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,04 %), Boysun (1,5 %), Oltinsoy (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Muzrabot (o'tgan yiga nisbatan 185,4 %), Qumqo'rg'on (164,7 %), Qiziriq (130,7 %), Sherobod (111,9 %), Sho'rchi (108,2 %), va Denov (107,4 %) tumanlari sezilarli darajada sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshishiqa imkon berdi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi  
(2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)



## Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'r'g'on (2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan 152,5 %), Sho'rchi (112,1 %), Oltinsoy (109,8 %), Termiz (103,9 %), Qiziriq (103,4 %) tumanlari va Termiz shahri (113,3 %) da sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahrida (1510,9 ming so'm), Jarqo'r'g'on (1203,2 ming so'm), Sherobod tumanida (634,5 ming so'm), Sariosiyo (632,9 ming so'm), Qumqo'r'g'on (578,6 ming so'm), Sho'rchi (574,3 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (540,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 202,4 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 642,5 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 449,1 ming so'mni, Termiz tumanida - 393,0 ming so'mni, Denov tumanida - 221,3 ming so'mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-aprel oylarida, ming so'm)


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Surxondaryo viloyati	540,7	202,4
Termiz sh.	1510,9	642,5

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>219,1</b>	<b>118,3</b>
<b>Bandixon</b>	<b>8,5</b>	<b>9,0</b>
<b>Boysun</b>	<b>182,3</b>	<b>129,4</b>
<b>Denov</b>	<b>373,7</b>	<b>221,3</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>1203,2</b>	<b>175,0</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>578,6</b>	<b>107,6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>435,4</b>	<b>100,7</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>349,6</b>	<b>67,4</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>128,9</b>	<b>124,1</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>632,9</b>	<b>108,1</b>
<b>Termiz</b>	<b>436,7</b>	<b>393,0</b>
<b>Uzun</b>	<b>164,0</b>	<b>95,7</b>
<b>Sherobod</b>	<b>634,5</b>	<b>159,6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>574,3</b>	<b>449,1</b>



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 527,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bandixon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Uzun (100,0 %), Boysun (98,0), Termiz (90,2 %), Angor (88,1 %), Qiziriq (69,2 %) va Denov (54,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'ssatdiki, Sherobod (20,5 %), Sho'rchi (22,5 %), Qumqo'rg'on (24,4 %), Muzrabot (25,3 %), Jarqo'rg'on (25,6 %), Sariosiyo (28,7 %) tumanlari va Termiz shahrida (30,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

### Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-may holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 2980 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 573 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 19,2 %) Termiz shahriga, 325 tasi (10,9 %) Denov tumaniga, 211 tasi (7,1 %) Jarqo'rg'on tumaniga va 211 tasi (7,1 %) Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-aprel oyida viloyatda 467 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 54 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 11,6 %) Denov tumanida, 52 tasi (11,1 %) Termiz shahrida, 49 tasi (10,5 %) Sho'rchi tumanida, 44 tasi (9,4 %) Oltinsoy tumanida, 41 tasi (8,8 %) Qumqo'rg'on tumanida hamda 34 tasi (7,3 %) Sariosiyo tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (76) 225-65-76  
(76) 223-07-24